

**HUQUBUZARLIKLER PROFILAKTIKASI FAOLIYATINI
REJALASHTIRISHNING TASHKILIY ASOSLARI VA TURLARI**

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligi

Akademiyasi 3-o'quv kursi kursanti safdar

Isoqov Shohjahon Orifjon o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada Huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyatini rejalashtirishda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklar profilaktikasi qonunchiligidagi profilaktika normalarini takomillashtirish amaliy jihatdan dolzarb masalaga yechim izlash haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Faoliyatni rejalashtirish, huquqbazarliklar profilaktikasi, Jinoyat kodeksi, maxsus qismi, jamiyat va davlat, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks.

Абстрактный: В данной статье высказывается мнение о поиске решения практического вопроса борьбы с преступностью при планировании профилактических мероприятий и совершенствовании профилактических норм в законодательстве о предупреждении преступности.

Ключевые слова: Человек и гражданин, Человек и гражданин, Уголовный кодекс, особенная часть, общество и государство, любовь к религии.

Abstract: In this article, there is an opinion about the search for a solution to the actual problem of crime prevention in the planning of crime prevention activities and the improvement of preventive norms in crime prevention legislation.

Keywords: Man and citizens, Man and citizens, Criminal Code, special part, society and state, love for religion.

Huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyatini rejalashtirishda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklar profilaktikasi qonunchiligidagi profilaktika normalarini takomillashtirish amaliy jihatdan dolzarb masala bo`lib qolmoqda. Chunki, shu orqali "Huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyatini rejalashtirish"da unda amalga oshirilishi lozim bo`lgan chora-tadbirlar takomillashib borishi yuzaga keladi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning:

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

“ qonunlarning to`liqligi, hayotiyligi va to`g`ridan-to`g`ri amalga oshirish mexanizmlariga ega ekani haqida so`z yuritganda, bu borada hali ko`p ish qilishimiz kerakligini ta`kidlash zarur”, degan fikrlaridan kelib chiqib, haqiqatdan ham, ayrim sohalarni tartibga soluvchi qonunlarda muayyan bo`shliqlar mavjud bo`lib, ular davlatimizning yanada rivojlanishiga salbiy ta`sir etishi mumkun. Shuning uchun ham qonunchilikdagi bo`shliqlarni to`ldirish va har bir sohani yanada takomillashtirish maqsadida ir qator qonunlar qabul qilinmoqda.

Qabul qilingan qonunlarning tub mazmun-mohiyati fuqarolarning qonuniy manfaatlarini ta`minlashga qaratilgan.O`tgan yillar davomida bu borada ko`pgina ishlar amalga oshirildi, jumladan huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati hamda jamoatchilik nazorati bilan bog`liq qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Yurtimizda xalqning davlat hkimiyyati va boshqaruv organlariga bo`lgan ishonchini oshirish mexanizmlarini takomillashtirishning falsafiy-siyosiy jihatlariga e`tibor qaratish hamda qonunchilik bazasini yanada mustahkamlash borasida qator choralar ko`rildi. Jumladan, o`tgan davr mobaynida ushbu sohaga oid 200 dan ziyod normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasida fuqarolarning jamoat birlashmalriga uyushish huquqi mustahkamlab qo`yilgan bolib, unga ko`ra “O`zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalriga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar”.

Huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyatini rejalashtirishning huquqiy asoslari-qonunlar va qonunchilik hujjatlarida ifodalangan qoidalar, farmoyishlar va ko`rsatmalar hamda davlat organlarining ushbu faoliyatga doir buyruq, yo`riqnomalar va boshqa normativ hujjatlarining yig`indisidir. Bugungi kunda “Huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyatini rejalashtirish”ni belgilab beruvchi huquqiy asos yaratildi.

Huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyatini rejalashtirishga doir huquqiy asoslarni ta`sir ko`rsatish kuchiga ko`ra quyidagi yo`nalishlarga bo`lib o`rganish mumkin:

- 1)Xalqaro huquqiy hujjatlar; 2)Konstitutsiya va qonunlar; 3)Qonunosti hujjatlar.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini rejajashtirishg oid xalqaro huquqiy hujjatlar:

- 1)Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (1948);
- 2)Fuqarolik va siyosiy huquqlar to`g`risida xalqaro pakt (1966);
- 3)Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to`g`risidagi Konvensiya(1965);
- 4)Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to`g`risidagi Konvensiya (1979);
- 5)Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq shavqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi kurashish to`g`risidagi Konvensiya (1979);
- 6)Jinoyatdan jabr ko`rganlar va mansabni suiiste`mol qilganlik uchun odil sudlov asosiy tamoyillarining Deklaratsiyasi (1985);
- 7)Birlashgan Millatlar Tashkilotining ozodlikdan mahrum etilgan voyaga yetmagan bolalarni himoya qilishga doir qoidalari (1986);
- 8)Har qanday shaklda ushlab turish yoki qamoqxonaga qamab qo`yilgan barcha shaxslarni himoya qilish bo`yicha tamoyillar to`plami(1988);
- 9)Bola huquqlari to`g`risidagi Konvensiya (1989);
- 10)Mansabdor shaxslarning huquqiy targ`ibotni saqlash borasidagi xulq-atvor kodeksini samarali amalga oshirish uchun rahbarlik tamoyillari (1989);
- 11)Jinoyatdan jabr ko`rgan va jinoyat guvohi bo`lgan bolalarni himoyalash to`g`risidagi Deklaratsiya (2005);
- 12)Birlashgan Millatlar Tashkilotining qamoqxonaga qamab qo`yish bilan bog`liq bo`limgan choralarga nisbatan minimal standart qoidalari “Tokio qoidalari” (1990);
- 13)Mahkumlar bilan muomala qilishning asosiy tamoyillari (1990);
- 14)Huquqiy targ`ibotni saqlab turish bo`yicha mansabdor shaxslar tomonidan kuch va o`qotar qurollardan foydalanishning asosiy tamoyillari (1990);

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini rejalashtirishga oid Konstitutsiya va milliy qonunlar:

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nomlangan ikkinchi bo`limining “Shaxsiy huquq va erkinliklar”ga bag`ishlangan 7-bobida keltirilgan “..... hech kim qynoqqa solinishi, zo`ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning roziligidan tibbiy yoki ilmiy tajribalar o`tkazilishi mumkin emas”, “ Har kim o`z sha`ni va obro`siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turarjoyi daxlsizligi huquqiga ega”, “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson o`zi xohlagan dinga e`tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e`tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo`l qo`yilmaydi”. Ushbu Konstitutsianing talablarini bajarishda vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishda O`zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual va Ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodekslari muhim o`rin tutadi. O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida;

Birinchidan, shaxsni, uning huquqlari va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, inson xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan muhofaza etish;

Ikkinchidan, jinoyatlarning oldini olish;

Uchinchidan, fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalash uning asosiy vazifalari qilib belgilangan.

Jinoyat kodeksining maxsus qismi normalari bilan jinoyat deb ko`rsatilgan qilmish uchun jazoning belgilanganligi to`g`ridan-to`g`ri shaxslarni bunday jinoiy qilmishlarni sodir etishdan ushlab turadi. Tadqiqotlar va jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyoti shuni ko`rsatmoqdaki, jamiyatda jinoyat uchun jazoning muqarrarligini ta`minlash qanchalik yuqori darajada bo`lsa jinoyat kodeksi normalarining jinoyatlarning oldini olish bo`yicha samarasi shuncha yuqori bo`ladi. Aytish joizki, Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini rejalashtirish jinoyatchilikka qarshi kurashishga barcha davlat organlari jamoat birlashmalari bilan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

birgalikda harakat qilishini ta`minlanadi, shunday ekan biz Konstitutsiyamiz uchinchi bo`limining “Jamoat birlashmalar” deb nomlanuvchi 13-bobidagi moddalar fuqarolik jamiyatining an`analarini tiklash, jamoat birlashmalarining maqomini huquqiy tarzda rasmiylashtirish, ularning real va barqaror rivojlanishini ta`minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy qoidalardan tashkil topgan. Eng muhammi, Konstitutsiyamizda fuqarolik jamiyatni institutlarini tashkil etish va ular faoliyatining huquqiy asoslari e`tirof etilgan, ularning davlat bilan o`zaro hamkorligi, prinsiplari belgilangan.

Ana shu konstitutsiyaviy normalarni amalda qo'llash maqsadida “O`zbekiston Respublikasi jamoat birlashmalar to`g`risida”, “ Kasaba uyushmalar, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to`g`risida”, “ Nodavlat notijorat tashkilotlari to`g`risida”, “Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida”, “ Siyosiy partiyalar to`g`risida”, “ Jamoat fondlari to`g`risida”, “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to`g`risida”, “ Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to`g`risida”, “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to`g`risida”, “ Ijtimoiy sherikchilik to`g`risida”, qonunlar qabul qilindi. Qolaversa fuqarolikjamiyatni institutlari faoliyat ko`rsatadigan huquqiy maqomini yanada kengaytirish maqsadida 2017-2021 yillarga mo`ljallangan O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi hamda 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026 yillarga mo`ljalangan Yangi O`zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi asosida qonun hujjatlari yanada takomillashtirildi

“ Huquqbazarliklar profilaktikasi faoliyatini rejalashtirish” jarayonida vakolatlari organlar jumladan ichki ishlar organlari o`z xizmat vakolatlari doirasida O`zbekiston Respublikasining Inson va fuqarolar to`g`risidagi kodeksining maxsus qismida ko`rsatilgan ma`muriy huquqbazarliklarni aniqlash, ularning sodir etilganligi haqida kerakli protsessual hujjatlarni rasmiylashtirish hamda mazkur kodeksning 18-bobidagi normalarga asosan belgilangan tartibda ko`rib chiqishga vakolatlari organlarga yuborish tartiblari belgilanganligini ko`rshimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

.Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси: (2023 йил 10 сентябргача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан) –Т.: «Yuridik adabiyotlar publish», 2023 й. –560 б.

Kriminologiya: Darslik/ Z. S. Zaripov, A. S. Yakubov, G. A. Avanesov va boshq.; prof. Z. S. Zaripov tahriri ostida. –T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008. –420 b.

Kriminologiya: Darslik / Z.S. Zaripov, Q.R. Abdurasulova, Y.S. Pulatov va boshq.; prof. Z. S. Zaripov tahriri ostida. –T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. –474 b.

Гуров А.И. Организованная преступность / А.И. Гуров // Криминология : учеб.пособие / Г.И. Богуш, О.Н. Ведерникова, М.Н. Голоднюк [и др.] ; науч. ред. Н.Ф. Кузнецова. –2-е изд., перераб. и доп. –М. : Проспект, 2012. –73 с.

Долгова А.И. Преступность, ее организованность и криминальное общество / А.И. Долгова. –М. : Рос. криминол. ассоц., 2003. –183 с.

<https://lex.uz/docs/-111453>

<https://kun.uz/uz/news/2021/10/08/uyushgan-jinoyatchilik-darajasi-boyicha-davlatlar-reytingi-elon-qilindi-ozbekiston-royxat-ortasida>

Абдувалиев, Д., & Арирова, А. (2021). КУЛЬТУРА ОБЩЕНИЯ СОТРУДНИКОВ ОВД. *Scientific progress*,2(1), 328-332.

Абдувалиев, Н., & Арирова, А. (2021). ВАЖНОСТЬ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИНСПЕКТОРОВ ПРОФИЛАКТИКИ ПРАВОНАРУШЕНИЙ. *Scientific progress*,2(1), 333-335.

Арирова, А. (2021). ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИДА МУЛОҚОТ МАДАНИЯТИ. *Scientific progress*,1(6), 913-921.